
Rishton tumanida “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostidagi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar doirasida katta gala-kontsert o‘tkazildi

Farg‘ona viloyatida joriy yilning 30 may – 6 iyun kunlari “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. “Ma‘naviyat festivali” doirasida viloyatimizga Toshkent shahridan ilm-fan, madaniyat, san‘at, adabiyot va badiiy ijod vakillaridan iborat katta bir guruh tashrif buyurdi. Mahalla fuqarolar yig‘inlarida kontsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, ijodiy uchrashuvlar, eng sara kinofilmlar namoyishi bo‘lib o‘tmoqda. Rishton tumani maskanlarida ham ushbu ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar doirasida aholi vakillari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tmoqda. Mazkur tantanalar doirasida mahallalardagi “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ga kiritilgan oilalarning holidan xabar olinishi, umuman, chekka-chekka hududlarga ham bugungi dorilamon kunlar shukuhini olib kirilishi maqsad qilingan. Uchrashuvlarda aholiga yurtimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali sodda va tushunarli shaklda yetkazishga e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bugun oqshom tumanimizdagi “Xalqaro kulolchilik markazi”da o‘tkazilgan tadbirlar doirasida tashkillangan ijodiy uchrashuv va katta gala-kontsert tuman ahliga manzur bo‘ldi. Tumanimizga ma‘naviyat karvoni bo‘lib poytaxtimizdan tashrif buyurgan hamda viloyatimiz san‘atkorlari, el ardog‘idagi shoir, yozuvchilar, ma‘naviyat targ‘ibotchilari va so‘z ustalari o‘zlarining chiqishlari bilan barchaga hush kayfiyat, qalblarga bir olam shodlik ulashdilar. Bugungi tadbir so‘ngidagi mushakbozlik jarayonlari esa uning jozibali xotimasiga sababchi bo‘ldi. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar doirasida ertaga tumanimizdagi “Istirohat bog‘i”da kinofilmlar namoyishi bo‘lib o‘tadi.

2022-06-03 06:42:14